

**GLOBALLASHUV JARAYODA VIRTUAL QARAMLIK VA UNING YOSHLAR  
MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI**

**Turopova O’g’iloy Botirovna**

*Osiyo Xalqaro Universiteti magistri*

*E-mail: [u0136971@gmail.com](mailto:u0136971@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada yoshlarning ta’lim tarbiyasi, globallashuv, virtual qaramlik, yot g‘oyalar ta’siriga berilish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, texnik qaramilik, umuminsoniy va milliy ma’naviy qadriyat tushunchalari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlar, virtual qaramlik ma’naviy inqiroz, ta’lim, tarbiya, texnik taraqqiyot.

**Аннотация:** В статье анализируются понятия образования молодежи, глобализации, виртуальной зависимости, воздействия иностранных идей, повышения духовности молодежи, технической зависимости, общечеловеческих и национальных моральных ценностей.

**Ключевые слова:** Молодежь, виртуальная зависимость, моральный кризис, образование, воспитание, техническое развитие.

**Annotation:** The article analyzes the concepts of youth education, globalization, virtual dependence, exposure to foreign ideas, raising the spirituality of youth, technical dependence, universal and national moral values.

**Key words:** Youth, virtual addiction, moral crisis, education, upbringing, technical development.

Jahon jamoatchiligi yoshlar bilan bog‘liq barcha global muammolar (qashshoqlik, savodsizlik, texnik qaramilik, yot g‘oyalar ta’siriga berilish, vatanparvarlik tuyg‘ularidan uzoqlashib borishi, bandlik va ishsizlik, migratsiya va boshqalar)ning sabablarini o‘rganish va oldini olishning eng maqbul yo‘li sifatida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, umuminsoniy va milliy ma’naviy qadriyatlarga mos ravishda tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etishini e’tirof etmoqda. Insoniyat hozirgi vaqtga kelib mazkur muammolarni, faqat ma’naviyatni rivojlantirish va psixologik konsultatsiya hamda korreksiya orqali hal etish mumkinligini anglab yetmoqda. Soha mutaxassislari globallashuv jarayonining dastlabki paytlarida asl mohiyatini yaxshi tasavvur eta olmaganlari uchun, globallashuvga erkin savdo yo‘lidagi to‘sirlarni olib tashlaydigan va barcha milliy iqtisodiyotni jamul jam qiladigan (integrallaydigan) ijobiy hodisa deb qaragan edilar.

Informatsion jamiyatda virtual tarmoqlarni rivojlanishi shaxs va uning mavjudligiga tahdid solib, psixologik buzulishlarni keltirib chiqarmoqda hamda virtual muhit ta’siri doirasida qolib ketmoqda. Mazkur jarayon ularda real hayotdan uzoqlashish va kuchayishi fenomenologiyasini rivojlantrib, shaxs sifatida

shakllanishiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan virtual olma va uning ta'sir doirasi shaxs hayotining muhim qismiga aylanib bormoqda hamda faoliyat turining barcha ko'rinishlarini fazoviy ifodalash, ijtimoiylashuvda passivlik, mas'uliyat va majburiyatni his etmaslik, jamiyat hayotidagi hodisa va jarayonlarga befarqlik hissini keltirib chiqarmoqda.

Globallashuv jarayonida rivoj topib borayotgan virtual “olam” rivojlangan mamlakatlar tomonidan boshqarilayotganligi sabali, ularga foyda keltirmoqd. Rivojlanyotgan mamlakatlarga, ayniqsa, juda kambag‘al mamlakatlarga inqiroz olib keluvchi, davlat va jamiyatning asosiy resursi bo‘lgan yoshlarni psixologiyasiga sabiy ta'siri natijasida, real voqielik va muhitdan uzoqlashtirib, orzu va maqsad hamda majburiyat va mas'uliyat hissini yo'qomoqda.

Mazkur masalaga I.I.Belyaev ta'birib bilan yondashadigan bo'lsak, globallashuv boshqa mamlakatlar ijtimioy – ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir qiliboshqa mamlakatlarni iqtisodiy yuksaltiradi.[1].

XXI asrning real voqeligi, “sivilizatsion integratsiyalashuv”, “ommaviy madaniyat” kishilar, millatlar, xalqlar, davlatlar, umuman insoniyatning ma'naviy hayot haqidagi qarashlari, konsepsiyalari, fikrlari o'rtaqidagi munosabatlar g'oyat murakkab, hatto, ayrim hollarda, ziddiyatliliginu namoyon qilmoqda. Darhaqiqat bugungi kunda kechayotgan sivilizatsion taraqqiyotning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini o'rganishda mutaxassis olimlar va keng jamotchilikni tashvishlantirayotgan masalalardan biri bu “ommaviy madaniyat”, “virtual qaramlik” bo'lib qolayotganligi hech kimga sir emas.

Tadqiqotchilarning psixologik va tibbiy yondashuviga ko'ra shaxslarni kompyuter va telefonda “ko'proq bo'lishi” g'ayritabiyy holat bo'lib, uning emotsiunal jihatlariga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazishi kuzatilgan. Shuningdek, mazkur holat shaxsni ruhiy va jismoniy holati hamda individual xususiyatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan[2].

Shu nuqtai nazarda olb qaraganda, virtual qaramlik giyohvandlik va alkogolizm ta'sir doirasidan ham kuchli bo'lib, fiziologik va psixologik buzulishlarni ortib borishi natijasida aqliy va xulqiy buzulishlarni qayta tiklab bo'lmaydigan holatga olib kelib qo'yadi, ya'ni shaxsni o'zini o'zi “zombiga” aylantiradi.

Jamiyat yoshlari o'rtaida virtual qaramlik tushunchasi, informatsion texnologiyalar bilan ishlashda tolerantlik tushunchasi bilan ifodalansada, uning ta'siri jamiyat va o'zidan “begonalashuv” hissini borgan sari ortib borishiga olib keladi.

O'z vaqtida mazkur muammolarni hal etish bo'yicha ran-barang ilmiy-nazariy konsepsiylar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning aksariyati hozir ham ahamiyatini yo'qotmasdan, aksincha dolzarbligi ortib bormoqda.

American Journal of Geriatric nuqtai nazaricha internetdan foydalanish xotira, til, o'qish va ko'rishni boshqaradigan miya markazlarini faollashtirishga olib keladi. Bundan tashqari, internetda qidiruv paytida, zarur ma'lumotlarni olish uchun taklif

qilingan havolalardan qaysi birini tanlash kerakligini hal qilish zarurati tufayli murakkab fikrlash va qaror qabul qilish uchun mas’ul bo’lgan miya markazlari faollashadi (kitoblarni o’qiyotganda, tegishli miyaning bunday faollahishi hududlar sodir bo’lmaydi)[3].

Shunday qilib, birinchidan, XX asrning so’nggi yillar va XXI asrning boshlarida vujudga kelgan ko‘p qutblilik va mafkuraviy plyuralizm, “global savdo tarmoqlar”, “sivilizatsion integratsiyalashuv”, “ommaviy madaniyat” dunyoning o‘zaro dialektik aloqa va ziddiyatlar birligi asosida harakat qiladigan ulkan, o‘zaro bir-biriga ta’sir etish kuchiga ega bo’lgan sistema sifatida faoliyat ko’rsatishini taqozo qilmoqda.

Ikkinchidan, bu jarayonning rivojlanish qonuniyat va tamoyillari, ba’zi mutaxassislarning fikriga ko‘ra, “butun jahonda iqtisodiy va madaniy makonning paydo bo‘lishiga hamda dunyo miqyosidagi yagona insoniy mushtaraklikning vujudga kelishi..., umumjahon yagona axborot almashuv makonining barpo etilishi kishilik sivilizatsiyasining yangi shakli yuzaga kelishiga olib boradi” –degan taxminlarni ilgari surishga asos bo‘lmoqda.[4]

Aslida buning zamirida kosmopolitik yondoshuv va maqsadlarning mavjudligi, tarixiy o’tmishi uzoq, milliy qadriyatlari boy va ertangi kelajagi buyuk bo’lgan mustaqil davlatlarning ertangi kuni va yoshlari istiqboliga tahdid solishi mumkinligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda, doimiy ogohlilikni unitmasdan yashash lozimligini barchamiz anglab turibmiz.[4]

Ushbu ziddiyatli nuqtai nazardan kelib chiqib bugungi kunda jamiyatimiz yoshlar ma’naviyati va madaniyati, ongi va tafakkuri bilan bog‘liq bo‘gan masalalarni har tomonlama cho‘qur o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazib bugungi tashqi ta’silardan himoya qila oladiga izalyatsion mexanizmni yaratishimiz davr talabiga aylanib borish bilan bir vaqtda, davlat va jamiyat ma’naviy hayoti va taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omil bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ushbu sohada amalga oshirlayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz: texnogen madaniyat tobora kuchayb borayotgan hozirgi davrda, yoshlarni “texnika quli”ga aylanib qolmasligi uchun (xususan, mobil telefoni, kompyuter va boshqalar) ta’lim – tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvni joriy etish,[4] jamiyatda axborot-informatsion xurujlarga qarshi kurashuvchi immunitetni shakllantirish, maktabgacha ta’lim muassasalaridan toritib oliy ta’limgacha bo’lgan sferani qamrab oladigan va umumiyy rivojlanish qonuniyatni o‘zida aks ettirgan ratsional mexaniz ishlab chiqilish, har tomonlama yetarli darajada zamonaviy va klassik nazariyalarni o‘zida umumlashtirgan bo‘lishi, qiyosiy tahlini o‘zida aks ettirishi, har bir nazariya millatning tarixiyligi va etnopsixologik xususiyatlarini inobatga olib mukammal tarzda qayta ishlangan holda keng ko’lamda barcha yosh qatlamga (qisqa va uzoq muddatda) singdiraolish mexanizmiga ega bo’lgan ijtimoiy transformatsion fazani ilmiy –amaliy omillarni o‘zida aks ettirish zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Belyaev M.I. Konsepsiya natsionalnogo gosudarstva. - M.: «Milogiya», <http://www.milogiya2007.ru/rusnaz>
2. Mendelevich V.D. "Psixologiya zavisimoy lichnosti", 2004.
3. Otamuratov, R.U., Ochilova M. Emotsional intelekt tushunchasining psixologik o'ziga xosligi / Fanlararo tadqiqotlar uchun Markaziy Osiyo tadqiqot jurnali. Maxsus soni №1, 2022.–B.54-58.
4. Eshnaev N.J. Ma'naviy-axloqiy muammolarni ilmiy tadqiq etishning o'ziga xos jihatlari / Academic Research In Educational Sciences Volume 2 | special issue 1 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
5. Eshnaev N.J. Normatova Z.A. Xarakteristiki konflikta shkolnogo soobshestva i mexanizmi yego upravleniya // Jurnal nauchníx i prikladníx issledovaniy. Nauchno-prakticheskiy jurnal. 2022. №1, -S.12-15
6. Eshnaev N.J. Suitsid va uning ijtimoiy-psixologik omillari / Mug'allim həm yzliksiz bilimlendirio'. Issn: 2181-7138. 2021. №2/1.-B. 20-23.
7. Eshnayev N.J. Character as an individual and psychological feature // Fan, ta'lim va amaliyat integratsiyasi. 2021. №2 Issn, 2181-1776.
8. Eshnayev N.J., Ataxo'jayeva Sh.A. Ta'limda diskriminatsiya va uning oqibatlari // Fan, ta'lim va amaliyat integratsiyasi. 2021. №2. Issn: 2181-1776.
9. Yuldasheva F. Metodologicheskie problemi protsessa globalizatsii. //Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2008. № 2. -s.75.
10. Babayeva, S. (2022). The emergence of artistic thinking in the composition of modern Uzbek novels. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(4), 538-544.
11. Jabborova, O. M., Saparbaeva, D. T. (2023). Modern requirements for the principles of educational organization. Emergent: journal of educational discoveries and lifelong learning (EJEDL), 4(1), 31-35.
12. Jabborova, O. M., Saparbaeva, D. T. (2023). Individual practice of the principles of organizing the educational process in primary education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 4(1), 29-33.